



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI.

Xudoyberdiyev Doniyor Dilshod o'g'li

Axborot texnologiyalar va
menejment universiteti 1-bosqich talabasi.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20353345>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 19-may 2026 yil

Ma'qullandi: 21-may 2026 yil

Nashr qilindi: 23-may 2026 yil

KEY WORDS

Moliyaviy savodxonlik, raqamli iqtisodiyot, shaxsiy moliya, moliyaviy barqarorlik..

ABSTRACT

Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholining moliyaviy savodxonligi eng muxim ahamiyatga ega. Bozor iqtisodiyoti va raqamli iqtisodiyot sharoitida moliya, kredit, va pul muomalalaridan ijodkorona foydalanish talab qilinadi. Texnologik rivojlanish va raqamli moliya vositalarining kengayishi shaxslarning moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada aholining moliyaviy savodxonlik ahamiyati, va uning raqamli iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilinadi.

Bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarining o'zgarishi ushbu jarayonlarning raqamlashuvi, mobillashuvi, sohaga sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi bilan bog'liq muhim davrni boshdan kechirmoqda. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot tushunchasi bir qator mamlakatlarning iqtisodiy nazaryasi va amaliyotida paydo bo'ldi. Shu bilan birgalikda moliyaviy savodxonlik tushunchasi xam yonma yon birgalikda tarkib topib bormoqda. .

Moliyaviy savodxonlik nafaqat iqtisodiy rivojlanishda, balki insonlarning shaxsiy rivojlanishida ham muxim ahamiyatga ega. Har qanday rivojlanishning negizida moliyaviy holat bva moliyaviy savodxonlik yotadi. Jhon amaliyoti shuni ko'rsatdiki, ko'p kishilar o'z mablag'laridan to'g'ri foydalana olish, o'z xarajatlarinva jamg'armalarini rejalashtirish, investitsiya yo'nalishlarini aniqlash, favqullodda vaziyatlar uchun mablag' jamg'arish borasida yetarli darajada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmaganligi sababli samarasiz qarorlar qabul qiladi va o'zlarining moddiy faravonligini oshirish salohiyatidan to'liq foydalana olmaydi. [1].

Bizning bugungi hayotimiz moliya bilan shunday kuchli bog'langanki, shaxsiy moliyani boshqarish bo'yicha samarali qarorlar qabul qilish qobiliyati har bir inson uchun obyektiv zaruriyatga aylanmoqda [2]. Jahon amaliyotining ko'rsatishicha aholi o'z mablag'laridan to'g'ri foydalanish, o'z xarajatlari va jamg'armalarini rejalashtirish, kabi moliyaviy savodxonlikka hali to'g'ri va yetarlicha bilimga ega emaslar.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida ijtimoiy bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan islohotlar chuqurlashuvi va iqtisodiyotni modernizatsiyalash talablari aholining moliyaviy savodxonligini shakllantirish va uni oshirish zarurligini isbotlamoqda. Davlat uchun aholi savodxonligining past darajasi, to'lov qobiliyatini rivojlantirishga to'siqning mavjudligi moliya bozorlar imkoniyatini va tartibga solish samaradorligini pasaytiradi, iste'molchilar huquqini cheklaydi shaxsiy qatnashuvga asoslangan jamg'ariladigan pensiya tizimiga o'tishga yo'l qo'ymaydi.

Bugungi kunda aholining moliyaviy savodxonlik darajasining oshirishning dolzarbligi bir qancha sabablar bilan asoslanadi :

1.Aholining daromand manbalari tarkibining o'zgarishi. Aholi daromadlari tarkibida kichik biznes , oilaviy va individual tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar ulushining ortib borishi jamg'arma va investitsiyalarni samarali boshqarish va xarajatlarni to'g'ri rejalashtirishga bo'lgan ehtiyojning keskin ortishiga olib keladi.

2.Ko'p sonli xususiy tadbirkorlarni paydo bo'lishi. Bunday tadbirkorlar kundalik ish faoliyatida turli boshqaruv masalalarini yechadilar: moliyaviy oqimlarni boshqarish va moddiy aktivlarni boshqarish, moliyaviy hisobga olish, daromad va xarajatlarni rejalashtirish va hu kabi boshqa masalalar.

3Shaxsiy jamg'armalarni investitsiyalash va moddiy aktivlarni boshqarish imkoniyatlarini kengayishi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi jamg'armalari va investitsiyalashni amalga oshirishning turli muqobil usullari vujudga keladi Banklar va boshqa moliya institutlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlardan unumli foydalanish uchun kreditlarni boshqarish, investitsiyalashni amalga oshirish, to'g'ri samarali qarorlar qabul qilish uchun moliyaviy savodxon bo'lish lozim [3].

So'nggi yillarda global iqtisodiyot raqamli texnologiyalar bilan tobora chambarchas bog'liq bo'lib bormoqda. Bu jarayon moliyaviy sohada ham sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqda. Xususan ,to'lov tizimlari ,bank xizmatlari ,investitsiya vositlari ,elektron tijorat va kriptovalyutalar singari yo'nalishlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish kundalik hayotga chuqur singib ketgan. Shunday muhitda nafaqat aholining barcha qatlamlari yoshlar, ayniqsa talabalar qatlamining moliyaviy savodxonligi va raqamli iqtisodiyotga moslashuvi muhim ahamiyatga egadir. O'zbekistonning yosh avlodi bugungi raqamli iqtisodiyotga qadam qo'yayotgan bir davrda ulg'amoqda .

Davlat tomonidan ko'plab raqamli xizmatlar joriy qilinmoqda, bank kartalari soni oshib bormoqda, elektron hamyonlar va QR to'lovlar ommalashmoqda.

Shu bilan birga ,bu imkoniyatlardan to'liq va xavfsiz foydalanish uchun yetarli bilim va ko'nikmalariga ega bo'lish talab etiladi.Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi talabalarga keng imkoniyatlar yaratmoqda , onlayn ish topish,startaplar tashkil etish, va moliyaviy texnologiyalar yordamida investitsiya qilish imkoniyatlari mavjud.Biroq bu imkoniyatlardan foydalana olish uchun nafaqat moliyaviy savodxonlik, balki raqamli ko'nikmalar, internetga kirish imkoniyati va axborot xavfsizligi bo'yicha bilimlar zarur[4].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy savodxonlik faqat shaxsiy moliyaviy qarorlarni qabul qilish emas, balki jamiyatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun muhimdir.

Moliyaviy savodxonligining eng dolzarb elementlariga byudjetni rejalashtirish, xarajatlarni nazorat qilish, tejash strategiyalarini ishlab chiqish, investitsiyalarni tahlil qilish va qarzlarni oqilona boshqarish kiradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bu ko'nikmalar yanada muhimlashadi, chunki moliyaviy xatoliklar va noto'g'ri qarorlar onlayn platformalarda keng va tez tarqaladi.

Shu bilan birga moliyaviy savodxonlik ijtimoiy ma'suliyatni oshirish, jamiyatdagi moliyaviy madaniyatni rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham asosiy vosita hisoblanadi.[5].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Marketing ,ilmiy amaliy va ommabop jurnali. № 2 Fevral .2025

2. Malikov T. Moliyaviy savodxonlik asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot - moliya, 2021. B. 25
3. Vaxobov A, Toshmatov SH, Xaydarov N. Moliyaviy savodxonlik asoslari. Toshkent: Baktria press. 2013. B 6 12.
4. Raqamli iqtisodiyot ilmiy ommabop electron jurnali. 11 son.
5. WWW.PHOENIXPUBLICATAION. NET.IX -SON.

